

MUHAMMADAMIN OMONOV

professional boksdan o'zini sinab ko'rish niyatida



4-betda o'qiydiz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

TONG

YULDUZI


2009-yil
14-sentabr
N:37
(66734)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

*Tili asal, shirin toylarim,
Bag'rimdagi to'lin oylarim!*



Aktyor bobo
velosipedda

7-bet

Go'zal Marg'ilonni tomosha qilib, Langar qishlog'iga o'tdik. Tun yorishib, bokira tongga o'rnini berayotgan nozik va jozibador palla. Ikki tomoni tokzor ko'chalar suv sepib, supurib-sidirilgan, odamlar yig'ilishib, yengil kulgi va hazil-mutoyiba qilib, to'yga ketishayotgan edi. Bizni ham to'yxonaga olib borishdi. Har jihatdan obod va fayzli Langar qishlog'i tongi bizni ana shunday iliq qarshilaganidan mamnun bo'ldik.

Marg'ilondagi bir yaxshi odat ko'nglimga juda o'tirdi. Mehmon kelsa, o'tirgan borki o'rnidan turib, salom-alik qilardikan.

MARG'ILONDA ALPLAR KO'P

Bunday azaliy urf-odatlar shunchalik ko'pki, ularning qay birini tilga olishni ham bilmay qolasiz. O'zbek deganini ulug'lik deb tilga olgimiz keladi.

Langar qishlog'idagi Mamasayyidxon Abdasov xonadonida bo'ldik. Fayzli hovli. Mehmonxona to'la kitob. O'zlari ham «Ajdodimga ehtirom» degan kitob yozibdilar. Unda tariximizga oid juda qiziqarli voqealar tilga olingan. Yetmish yoshli otaxonning o'z tariximiz, ulug' ajdodlari to'g'risidagi fikrlari, o'ylari va qaydlari sizda katta taassurot qoldiradi.

Davomi 4-betda

Erta tongda oppoq kabutarlar kabi oshiqib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz qadrdon maktablari quchog'iga yo'l olishdi. Bolalikning zavqli bu damlarini so'z bilan ifoda etish qiyin.

Har bir bola o'zi bir olam. Nigohida beg'ubor orzular balqib turgan yoshlarimizning jo'shqin karvoniga ko'z tegmasin, deymiz. Ular yurtimizning ertangi kuni...

Uchtepa tumanidagi 116-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lganimizda, qalbimizni bolalikning jo'shqin damlari bir zum bo'lsa-da tark etmadi. Bolalarni birinchi dars kuni bilan tabriklagan Toshkent shahar hokimi vakili Rauf Qurbonov o'z so'zida yurtimizda to'ylarning to'ylarga ulanib borayotganini faxr-iftixor bilan so'zlab, yurtimiz ravnaqi bo'lgan yoshlarimizga o'qish va izlanish yo'lida katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidladi.

Ushbu maktabda 2500 nafar o'quvchi tahsil olishini aytdi maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Saodat G'ulomova. Uning

QO'NG'IROQNING QUVNOQ SADOSI



bolalaridan kelajakda ilm-fan taraqqiyotiga yuksak hissa qo'shadigan ishbilarmon o'g'il-qizlar yetishishiga aminmiz. Maktabda birinchi dars – Vatan darsi bilan boshlandi. 1-sinf o'quvchisi Ruxsora Qosimova chalgan qo'ng'iroqning quvnoq sadosi qalbimizni larzaga solib, beixtiyor bolalikning sho'x-shodon damlarini eslatdi.

Axtamqul KARIM

aytishicha, maktabda ustozlarning bir guruhi o'z fanlari bo'yicha shaharda o'tkazilgan musobaqalarda yuqori o'rinlarni egallashgan. Jumladan, fizika fanidan Mo'jiza opa Po'latova birinchi o'rinni, Zahro opa Turopova kimyo fanidan uchinchi o'ring'olibi bo'libdi.

Noila Ablayeva esa ona tili darsidan o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma yaratgan ekan. Rus tili to'garagini rivojlantirishda Mariya Enshovaning alohida o'rni borligini aytishdi.

Ustozlardan Munira Mirzayeva, Ma'suda Mirdadayeva hamda Farida Nazirxonovani nomlarini alohida ta'kidlash mumkin.

Biz maktabning izlanuvchan ustozlari faoliyatidan shuni guvohi bo'ldikki, bu maktab

Ona tili fanidan TEST

1. O'zbek tiliga qachon davlat tili maqomi berildi?

- A) 1991-yil 21-oktabr;
- B) 1989-yil 21-oktabr;
- D) 1990-yil 1-sentabr;
- E) 1993-yil 19-noyabr.

2. Ma'nodosh so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) qaramoq, yugurmoq, chopmoq;
- B) yer, osmon, quyosh;
- D) muhayyo, shay, tayyor;
- E) barmoq, bormoq, kelmoq.

3. Ma'rifatli, yuksak didli bolalardan kelajakda ulug' insonlar yetishib chiqsa, ne ajab?! Ushbu gap qanday gap?

- A) darak gap;
- B) so'roq gap;
- D) buyruq gap;
- E) his-hayajon gap.

4. So'z birikmasi berilgan qatorni aniqlang.

- A) ilm izla, gap yo'q;
- B) chiroyli bino, ozod o'lka;
- D) ko'p dema, ko'p kulma;
- E) kungaboqar, yeryong'oq.

5. Ilm baxt keltiradi. Ifoda maqsadiga ko'ra gapning turini aniqlang.

- A) darak;
- B) so'roq;
- D) buyruq;
- E) istak.

6. Biz tunda yo'lga chiqamiz. Tunda? So'roq gap qanday hosil bo'lgan?

- A) so'roq olmoshi bilan;
- B) so'roq yuklamasi bilan;
- D) – a yuklamasi bilan;
- E) so'roq ohangi yordamida.

7. «Xorijiy tillarni yaxshi o'rganib, chet ellarga o'qishga borsam». Ifoda maqsadiga ko'ra ushbu gap turini aniqlang.

- A) darak;
- B) so'roq;
- D) buyruq;
- E) istak.

8. Qaysi gapda ot kesim berilgan?

- A) ko'pdan quyon qochib qutulmas;
- B) osmonimiz musaffo;
- D) qushlar sayraydi;
- E) gul ochildi.

Bulutlarga bo'ysunmas quyosh

Osmonga nazar tashlar ekanmiz, bulutlarni suzib borayotganligini, qushlarni sayrashini va ularning parvozini ko'rib, quvonamiz.

Shunda osmonni quchging, qushlar singari uchging keladi. Bulutlarga diqqat bilan nazar solar ekanmiz, ularni asta-sekin odimlab ketayotganini va bir-biriga qo'shilib, ba'zan esa bir-biridan ajralib, allaqanday shakllarni hosil qilayotganini ko'ramiz. Osmonda bulutlar goho odamlar, hayvonlar, turli jonzorlar qiyofalarida, goho qadimiy yozuvlarga o'xshab xilma-xil ajoyibotlarni aks ettirishi bilan insonlarni hayratlantiradi va ba'zan o'yga toldiradi.

Bulutlar odimlayotganida, gohida quyosh nurlarini to'sib qolar, shunda bulutlarning qirralaridan quyosh nurlari taralar, oldinga yurganda esa yana asta-sekin saxiy quyosh bulutlar orqasidan chiqib, zarrin nurlarini sochar edi.

Ba'zan fazodagi oppoq bulutlar qaylargadir yo'q

bo'ladi-yu, ketidan poyonsiz ko'm-ko'k osmon va gala-gala qushlar namoyon bo'ladi. Bu sayroqi qushlarning sayragan ohanglari bir-biriga qo'shilib, ajib bir yoqimli kuy taratadi.

Ba'zan osmonni qop-qora bulutlar qoplaydi-yu, go'yo u yig'layotganday billur tomchilar qora bulutlar orasidan yog'iladi. Atrofga sokinlik cho'madi. Vaqt o'tib, osmon va bulutlar go'yoki billur tomchilar ila yuvinganday charog'on bo'ladi. Saxiy quyosh yana porlab, oppoq bulutlar ko'rinadi. Yana qushlar sayrashi eshitiladi. Mana shunday qilib, osmon-u falak o'z ko'rinishini o'zgartirib turadi.

Dilfuza JUMANAZAROVA,
Toshkent shahridagi

179-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi

13 RAQAMI XOSIYATLIMI?..

13 raqamidan haliyam odamlar qo'rqishadi. Oyning 13-sanasi to'g'ri keladigan har juma kuni Chikago mehmonxonalaridan birida oynani sindirish uchun 13 xonada 13 kishi yig'iladi. Go'yo shu bilan baxtsiz kunni baxtli qilishadi. Umuman olganda, amerikaliklarning ko'pchiligi 13 raqamidan juda «qo'rqishadi». Shuning uchun bo'lsa kerak, Nyu-Yorkdagi nashriyotlardan biri har yili yilnoma (kalendar)ni 13 raqamisiz chiqaradi, ya'ni 13 o'rniga 2 marta 12 raqamini qo'llaydi. Ko'p mehmonxonalarda esa 13-xona yo'q. Ayrim samolyotlarda ham 13-joyni kunduzi chiroq yoqib ham topib bo'lmaydi, kasalxonalarda ham ahvol shu.

Umida HAKIMOVA tayyorladi


Ilmsizlik bilan ishga kirishsang,
Foydasi bo'lmaydi qancha tirishsang.

SENI DO'STING KUTYAPTI...

Assalomu alaykum aziz do'stim! Bilimlar olamiga xush kelibsan!

Bugun birinchi sinfsan. Mustaqil hayot tomon ilk qadamlaringni qo'ya boshlading. O'zing ham sezgan bo'lsang kerak, sen ulg'ayib qolgandeksan. Buva-buvilaring, ota-

onangni erkalashlari ortda qoldi. Yangi davranga kirayapsan. Ilgari bilmagan narsangni so'rarding. Endi ayrim narsalarni sendan ham so'ray boshlashadi. Sen bunga tayyormisan? Bu yo'lda senga eng birinchi ko'makchi kimligini topdingmi?



Albatta, kitob-da. U minglab savollar bersang ham javob beraveradi. Gohida charchab ketgan yaqinlaring kabi: «Ey, jonga tegib ketding-ku», demaydi.

U bilan do'st bo'lganingdan keyin u seni birinchi galda Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi buyuk zotlar bilan tanishtiradi.

BIRINCHI KUN TAASSUROTLARI..



YO'LDAN O'TISHNING YO'LI

Rohila MUHAMMADJONOVA, poytaxtimizdagi fransuz tiliga ixtisoslashtirilgan 51-maktabning 3-«V» sinf rahbari:

– Birinchi qo'ng'iroq sadolari jaranglab, o'quvchilarimning sinfga kirib kelishlarini juda sog'ingan edim. Qo'llarida gul ko'tarib, o'zlari ham shu gullardek yashnab kelgan bolajonlarimni quchoqlab to'yadim. Birinchi darsdayoq ularning fikrlari teranlashib, aqlari charxlanganligini his qildim. Ular bilan Vatanimiz O'zbekiston haqida suhbatlashar ekanman, yurtimizda ana shunday oqil-u dono farzandlarimiz kamol topayotganidan quvondim. Birinchi darsdan so'ng yo'l harakati qoidalari darsi bo'ldi. Ushbu darsda o'tgan yili o'tilgan mavzularni yana bir bor takrorlab oldik. Yo'l harakatlarini yaxshi o'rganib, bu qoidalarga amal qilgan bolalar turli falokatlardan yiroq bo'ladilar. Ana shunday qoidalarni birinchi kundanoq o'quvchilarimga uqtirishga harakat qildim.



*Aziz o'quvchilar!
Mana, yangi o'quv yili boshlanib,
barchangiz jonajon maktabingiz bag'riga
qaytdingiz. Odatdagidek, birinchi dars –
Mustaqillik darsida mehribon ustozingiz, qadrdon
sinfdoshlaringiz bilan muringib suhbatlashib ham
olgandirsiz? Barakalla! Biz ham sevimli
ustozlaringiz bilan maktabdagi birinchi kun
taassurotlari haqida bir qancha
ma'lumotlarga ega bo'ldik.*



YOMON ODAT

Nasiba NORQULOVA, Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 65-maktabning 4-«A» sinf rahbari:

– Har yili o'qishning birinchi kuni sinfimizga sardor saylaymiz. E'tibor bergan bo'lsangiz, ko'pincha sardorlik vazifasi qizlarga topshiriladi. Negaki, qizlar o'g'il bolalarga qaraganda faol bo'lishadi. Men rahbarlik qilayotgan sinfda o'g'il bolalar o'qishda ham, maktab ishlarida ham faollikni qo'ldan bermaydilar. Bu yil o'quvchilar bilan maslahatlashib, Rahimjon Alimov sardorlik vazifasini davom ettirishini ma'qul topdik. Chunki u mas'uliyatni his qilib, barchaga o'rnak bo'la oladi. Darslarni yaxshi o'zlashtirilmagan o'quvchilarga yordam beradi. Dangasalik yomon odat ekanligini qayta-qayta takrorlab, sinfimizni «Eng yaxshi sinf» bo'lishiga harakat qiladi. Mening fikrimcha, yaxshi sardor o'z sinfini «Eng namunali sinf»ga aylantiradi.



«PALAPONLAR»GA SOVG'A

Feruz SAGDIYEVA, Yunusobod tumanidagi 87-yordamchi maktabning 1-«A» sinf rahbari:

– 1-sinf o'quvchilarini palaponlarga qiyoslayman. Hali o'qish va yozishni bilmagan bolajon qo'lga qalam tutqazish, unga harf o'rgatish mashaqqatli ish. Ammo uning natijalarini ko'rish uchun ancha mehnat qilish lozim. O'quvchilarimni savodxon, bilimdon bo'lib kamol topishlari esa men uchun katta baxt.

Bu yil 1-«A» sinfiga rahbar bo'ldim. Maktabga katta qiziqish bilan kelgan «palaponlar»ni o'z sinflari bilan tanishtirdim. Ularda odob-axloq, o'quvchining vazifalari haqida batafsil ma'lumot berdim. Birinchi darsdan so'ng barcha o'quvchilarga yurtboshimiz sovg'alarini topshirdim. O'quvchilar portfel ichidagi kitob-daftarlarni ko'rib, qanchalar quvongan bo'lsalar, men ushbu sovg'alar o'z egasini topganidan judayam xursand bo'ldim.

Maktabdagi birinchi kun taassurotlari ustozlar va o'quvchilar xotirasida muhrlanib qolishi shubhasiz. Negaki, bu kun ular hayotlari zarvaraqlarini yana bir sahifaga boyitishga ulgurdi.

GULYUZ tayyorladi



UZUNDAN-UZOQ SUHBAT:

Nurbibi NASRULLAYEVA, Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi 12-o'rta maktab o'qituvchisi:

– Bu yil sentabrda qo'shaloq bayramlarimiz – yurtimizning mustaqillik kuni hamda Toshkentning 2200 yillik to'yini qizg'in nishonladik. Birinchi dars barcha sinflarda Mustaqillik darsi bo'lib o'tdi. O'quvchilarga Vatanimiz haqida so'zlar ekanman, ular ko'zidagi quvonchni ko'rib, o'z bolaligim, maktab davrlarim yodimga tushdi. Bu ikki davrni qiyoslab, beixtiyor hozirgi kun yoshlariga havas bilan qaradim. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilar uchun barcha sharoitlar muhayyo. Yangi ta'mirdan chiqqan sinf xonalari, yangi darsliklar, bilimdon o'qituvchilar. Ular faqatgina mustahkam bilim olsalar bo'lgani. Birinchi dars tugab, qo'ng'iroq chalinsa hamki, o'quvchilar tanaffusga chiqmay, suhbatni davom ettirishni so'rädilar. Ha, chindan ham bir-birimizni juda sog'ingan ekanmiz, uzundan-uzoq suhbatimizdan so'ng bu sog'inchlarimiz biroq qongandek bo'ldi.

Sen ulardan Vatan qadri, uni sevishni o'rganasan. Hazrat Alisher Navoiy bobong bilan tanishtirganidan so'ng, xalqiga xizmat qilgan kishilar uzoq yillar mobaynida insonlar qalbidan joy olishlariga guvoh bo'lasan.

Asta-sekin do'stliging mustahkamlanib borgani sari yangi do'sting sen uchun boshqa sirlarni ham ocha boshlaydi. Osmondagi sanoqsiz yulduzlar nega tushib ketmasligi, oy bilan quyosh bir maromda o'rin almashishi haqida bilib olasan. Tog'lar, daryolar, ummonlar haqida ham aytib beradi. Beruniy, Ibn Sino kabi yuzlab alloma bobolaring, ularning ilm-fan yo'lida amalga oshirgan ulkan ishlar haqida bilgach, senda ham ilm olishga bo'lgan havas yanada oshishi shubhasiz.

Albatta, havas yaxshi. Lekin buning o'zi kamlik qiladi. Eng birinchi galda g'ayrat bilan ishga kirishish kerak.

Yana bir narsani yodingda tut: sen

ulug' kunda, mamlakat Mustaqilligining 18 yilligi-yu azim poytaxtimizning 2200 yilligi keng nishonlanayotgan kunlarda maktab quchog'iga kirib bording. Vaqtlar keladi, qadrdon do'sting bo'lgan kitob seni yuksaklarga olib chiqadi. O'shanda ham bu kunni iftixor bilan eslaysan. Men ulug' kunda birinchi sinfga borganman, deysan. Bu yo'lda senga ulkan zafarlar tilaymiz.

Yusuf FAYZULLO

guvohi bo'lamiz. Qizim poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 172-maktabning 6-«A» sinfida o'qiydi. Maktab ta'mirdan chiqqan. Bolalarga birinchi kundanoq yangi kitoblar tarqatildi. Bundan biz ota-onalar judayam xursand bo'ldik. Ba'zan ayrim kitoblarni topish juda qiyin kechardi. Juda yaxshi o'ylashibdida, deydishdi ko'pehilik.

– Sinf xonalari ko'ngildagidek bezatilgan. O'quvchilar bir xil maktab

BIR XIL BO'LGANI YAXSHI

Bugun bolajonlarimiz ta'til kunlarini maroqli o'tkazib, qadrdon maktablari tomon qo'llarida guldastalar bilan oshiqib boryaptilar. Ularning yuz-ko'zlaridagi tabassundan qadrdon maktablarini, o'qituvchilarini, hatto maktab partasi-yu sinf xonalarini sog'inishganini

formasida. O'g'il va qiz bolalarning kiyimi ham arzon va juda bejirim, bu biz ota-onalarga ma'qul keldi. Ba'zi ota-onalar farzandlariga qimmatbaho kiyimlar olib berishadi. Ular orasida kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar borligini unutib qo'yishadi, – dedi

sinf rahbari Feruz opa. Feruz opaning g'amxo'rlik bilan aytgan gaplaridan bir voqea yodimga tushdi. Ikki yildan beri bir xil formani kiygan qizni ayrim sinfdoshlari: «Shu eskituskilaringni qachon tashlaysan?» deb masxara qilib, ajratib qo'yishganiga guvoh bo'lganman.

Maktabga o'quvchi ilm olishga keladi, kiyimlarini ko'z-ko'z qilish yoki har xil taqinchoqlarni taqib, o'zini ko'rsatish uchun emas. Uning o'miga o'qib, biror-bir mashg'ulot bilan shug'ullansa, hunar egallasa qanday yaxshi. Manmanlikka berilib, o'z dugonasini ajratib qo'yish, ularning dilini og'ritish, kamsitish og'ir gunoh ekanligini tushuntirilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bola aziz, odobi undan aziz, ularga tarbiya berish, avvalo bizning asosiy vazifamizdir. Buni esa biz hech qachon unutmasligimiz kerak.

M.UBAYDULLAYEVA

Boshi 1-betda

Kechqurungi suhbatlarda mamlakatimizdagi katta o'zgarishlar, ulug'vor qurilishlar, yurtimizning jahonda nufuzi tobora oshib borayotgani-yu, ayniqsa, yoshlar to'g'risida juda iliq gap-so'zlar bo'ldi. «Kitob o'qigan boladan hech qachon yomonlik chiqmaydi, – dedi Mamasayyidxon aka, – men bir umr, kitoblar ichida yashab kelyapman, kam bo'layotganim yo'q!» Marg'ilonda, Farg'onada, Langar qishlog'ida u kishi bilan birga yurganimizda katta-yu kichikning unga bo'lgan izzat-hurmatini ko'rib, bunga amin bo'ldik. Davramizda ishtirok etgan shoir Ismoil Mahmudning «Jahon otin Uvaysiy» to'garagi atrofiga birlashgan yoshlarning dovru'gi butun O'zbekiston bo'ylab tarqaldi. To'garak a'zolarining qo'lga kiritgan yutuqlari haqida soatlab gapirish mumkin.

Yoshlarga murabbiylik qilib, ular uchun shart-sharoitlar yaratayotgan G'ulom aka Madumarovning fidoyiligi va tashabbuskorligini alohida mamnuniyat bilan qayd etish kerak. U kishining bir gapi diqqatimni tortdi.

Xulqi buzuq, eng yomon bola bir kuni: «– Men qanday yo'l tutsam, yaxshi bolalar qatoridan joy olaman?» deb so'rabdi. Zal to'la ekan. Hamma jim qolibdi. Ko'pni ko'rgan taniqli odamlardan biri unga shunday maslahat beribdi: «– Inson qalbida doimo ikki kuch: yaxshilik va yomonlik kurashib yuradi. Qaysi bola yaxshilikni ko'paytirsa, xulqi ham yaxshilanib boradi. Shuning uchun, bolam, hozirdan, shu paytdan boshlab yaxshi ishlarni ko'paytir!» debdi. Oradan bir yil o'tar-o'tmas o'sha xulqi buzuq bola a'lochilar safidan o'rin olibdi.

Davramizda ishtirok etgan Sodiq Fozilov ikki yuz yillik tarixga ega g'ijagini chunonam sayratib, bizni xushnud etgandan so'ng: «– Qadimda bobolarimiz behudaga yoshlarga musiqa o'rgatishmagan, dilbar ohang, mayin kuylar, sho'x va o'ynoqi musiqa bola qalbini yumshatib, asab tomirlarini baquvvat qiladi», dedi. Hayotda har bir narsaning o'rni bor.

To'liqin HAYIT

Sportga e'tibor qalay bu yerda, degan gap o'tdi ko'nglimizdan. Xuddi shuni kutib turgandek G'ulom aka: «– Bizda ham chempionlar bor, gazetangizga yozsangiz, yaxshi bo'lardi!» dedi. Oldinma-ketin sport oshyoniga yo'l oldik. Bolalar va o'smirlar mashq qilishyapti. Uzun bo'yli, yurish-turishi chaqqon va dadil kishi bilan tanishtirishdi. Bu odam Tojimat Shodiyev ekan. Jonkuyar murabbiy bizga og'ir, bosiq o'smirni tanishtirdi. U boks bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan Respublika «Rapqon – 2007» turnirining g'olibi

**BO'SH KELMAGIN, MUHAMMADAMIN!**

Muhammadamin Omonov ekan. Boksda og'ir, bosiqlik va sovuqqonlik birinchi o'rinda turishini yaxshi bilamiz. Ringda bu juda yaxshi asqotadi. Suhbatdoshimizda ana shu jihatlarning zoirligini bir qarashdayoq ilg'ash mumkin edi. Savollarimizga ham shoshmasdan javob qaytarar ekan, yuragida o'ti bor bu o'smirning yoshiga nisbatan qaddi-qomatiga qarab, yurtimizning bo'lajak alpi degimiz keldi.

– O'g'limning o'z yo'lini aniqlab olgani va erishayotgan yutuqlari meni behad quvontirmoqda, – deydi otasi Erkinjon Ortikov. – 2005-yilda viloyat birinchiligida qatnashib, ilk yutuq bilan uyga kirib kelganida, boshim osmonga yetgan edi. 2007-yilda Farg'ona viloyati bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada birinchi o'rinni qo'lga kiritganida, yanada suyundim. Murabbiyi Tojimat akaning fidoyiligi-yu, G'ulom akaning beminnat ko'rsatayotgan yordamlaridan mamnunman.

Biz ota-bolani kuzatamiz. Ular bir-birlariga jilmayib qaraydilar. Ha, aytganday, Muhammadaminning ukasi ham boks to'garagiga qatnamoqda ekan. Mashqda ishtirok etayotgani bois unga xalaqit bergimiz kelmadi.

Nigohimizni yana suhbatdoshimizga qaratamiz.

– Professional boksda qatnashish niyatim bor, – deydi Muhammadamin.

– Jahon chempioni bo'lish-chi?! – deya hazilga buramiz gapni.

Erkinjon aka dangaliga o'tadi:

– Champion akalari o'rnini bosishi kerak-da. Yaxshi niyat – yarim davlat.

Inson zoti borki, yaxshi niyat qildimi, albatta, unga erishadi. Omadingni bersin, bo'sh kelmagin, Muhammadamin. Boks bo'yicha jahon chempioni bo'lganingda, alp yelkangga zarhal to'n kiydirish bizga ham nasib etsin.

Feruza ADILOVA

Mustaqillik yillarida o'zbek sportchilarining ham ko'kraklariga shabada tegdi. Endi ular to'g'ridan-to'g'ri xalqaro musobaqalariga chiqish va u yerda nimalarga qodir ekanliklarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tojimat yaqin o'rtog'i Mars Qo'chqorov shogirdlarining yutuqlari haqida televideniye orqali tez-tez xabar toparkan, ko'nglida umid uchqunlari alangalana boshladi. Sobiq do'sti bilan bo'lgan uchrashuv uning niyatini yanada mustahkamlaydi.

**EZGU ISH ERTA
BOSHLANDI**

Langar qishloq fuqarolar yig'ini raisi Abduhakim Abdurahmonov Tojimat bilan maktabda birga ishlagan. Ularning niyatlari bir joydan chiqdi.

– Yurtboshimiz sportchilarning boshlarini osmon qadar g'urur bilan baland ko'tarishlariga imkon yaratib berayotgan bir paytda, nega endi biz bunday imkoniyatlardan foydalanmasligimiz kerak ekan, degan fikrga keldik, – deb eslaydi Abduhakim Abdurahmonov. – Voleyboldan respublikaga taniqli sportchilar yetishib chiqqan qishlog'imizdan. Otaxon aka, Umarxon aka, Rustam aka oliy ligada o'ynashgan. Ular bilan hamqishloqlarimiz nihoyatda faxrlanishadi. Tojimat Ukrainadan sport ustasi bo'lib qaytgan bir paytda nega boshqalar bunday darajaga erishishlari mumkin emas ekan, deb o'ylab qoldik.

Qishlog'imizdagi klub binosi to'qimachilarga berib qo'yilgandi.

Ular ishni tashlab ketishdi-yu, bino qarovsiz bo'lib qoldi. Binoni jamoa xo'jaligidan so'rab oldik. Tojimat ota-onalar ko'magida binoni ta'mirlab, ringlar qurdi, trenajorlar o'rnatdi, hududi asfaltlandi.

Har bir o'smir o'zini ko'rsatishni xohlaydi. Shu bois, tez orada to'garak a'zolari soni 200 ga yaqinlashib qoldi. Ammo to'garakda intizom qattiq, qolaversa, bokschi bo'lish uchun qiyindan-qiyin mashqlarni bajarish darkor. O'z-o'zidan ravshanki, qiyinchiliklarga chiday olmay, ketib qolganlar ham bo'ldi.

– Hozir 140 nafar bola qatnayapti to'garagimizga, – deydi Tojimat Shodiyev. – O'n bitta qishloqdan, beshta maktabdan bolalar kelishadi. Ular orasida kollej va oliy o'quv yurtlarining talabalaridan tortib, o'rta maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilarigacha bor.

– Boks to'garagi ochilgach, qishloqlarimiz ancha tinchib qoldi, – deydi qishloq fuqarolar yig'ini raisi Abduhakim aka. – Yigitlar behudaga mushtlashishmaydi, hovliqishmaydi. Qolaversa, ular bor joyda ayrim to'polonchilar ham o'zlarini chetga oladigan bo'lib qolishdi.

Bolalar sportini rivojlantirish borasida hukumatimiz olib borayotgan izchil siyosatning tagida katta ma'no bor. Kelajagimiz bo'lgan bolalar sport bilan shug'ullanishsa, bundan butun jamiyat yutadi.

Sportchilardan Sa'dullo Turg'unov, Abror Teshaboyev, Doniyor To'lanov singari iqtidorli qatnashchilari kelajakda sport ustasi, chempion bo'lishni orzu qilishyapti. Omad ularga, albatta, yor bo'lajak.

G'ulomjon MADUMAROV, Sobirjon QODIROV,
Langar qishlog'i



Qishloqning bo'lajak chempionlari.



«QIYMOQ TANAFFUS»

O'qishlar qalay, kichkintoy do'stlar?! Ustozlarning o'g'itlariga amal qilib, qunt bilan ilm o'lyapsizmi? Ta'mirdan chiqqan shohona maktablarning keng, yorug' sinxonalarida tahsil olishning zavqi o'zgacha bo'ladi. Sizlar uchun davlatimiz milliard-milliard mablag' ajratib, ertangi kuningiz uchun g'amxo'rlik qilmoqda. Buning shukronasi o'laroq siz aziz ukajonlar faqat a'lo baholarda o'qimog'ingiz kerak. Tanaffus paytlarida sizlar bilan muloqot qilish uchun bugun ham sahifamizda qiziqarli masala, qatra va muammoli boshqotirmalar e'lon qilyapmiz. Shuni unutmangki, bu sahifa ko'proq sizlardan kelgan maktublar asosida tayyorlanadi. Bizga yozing, fikr bildiring! Tanaffuslarda nimalar haqida gaplashasiz? Qaysi kasbni tanlayapsiz? Qaysi kitoblarni o'qingiz? O'zingiz bilan bog'liq qanday qiziqarli voqealar sodir bo'ldi? Do'stingizning qaysi xislati ko'proq yoqadi? Yana qaysi mavzularda gaplashishni xohlaysiz? Oldindan sizga o'z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

Bitta odamni baxtli etmoq uchun qanchalar ter to'kmoq kerak-a!

MONTESKYO, farangiztonlik faylasuf

QIZIQARLI MASALALAR

Eman daraxtining 12 ta shoxi bor, ularning har birida 6 tadan shoxchalar bo'lib, har bir shoxchada 5 tadan olma bor bo'lsa, daraxtda hammasi bo'lib nechta olma bo'ladi?

Javobi: Chunki eman daraxtida olma bo'lmaydi.

Vali yashaydigan uy yonidan 3 ta yo'nalish bo'yicha avtobuslar o'tadi. Uchchala avtobuslarning ham nomerlari bir xil raqamlar bilan yoziladi. Bulardan tashqari, uchchalasi ham ma'lum bir raqamlari kvadratlarini bildiradi. Avtobuslarning nomerlari qanday bo'lgan?

Javobi: 169, 196, 961, 13², 14², 31².

KAMTARLIK HAQIDA

Garchi shuncha mag'rur tursa ham, Piyolaga egilar choynak, Shunday ekan, manmanlik nechun, Kibr-u havo nimaga kerak?

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam O'tma g'urur ostonasidan. Piyolani inson shuning-chun O'par doim peshonasidan.

XANDALAR



– Jamshid, musobaqa qanday o'tdi?
– Yomon emas, uchinchi o'rinni oldim.
– O', yaxshi, ko'p sportchilar qatnashdimi?
– Faqat uch kishi, xolos.

Ota o'g'liga o'shqirdi:

– Necha marta aytishim kerak, gugurt o'ynama, deb?!
– O'ynayotganim yo'q, faqat sigaretimni tutatib oldim, xolos...

TOPISHMOQLAR

Berib tursang o'tini, Ayamaydi sutini.




Yelkasida bo'lar Har choq-Goh bitta, Ikkita tog'.

Emaklagan toshni ko'rdim, Toshidan chiqqan boshni ko'rdim.



Gulni sevar azali, Hosil berar mazali.

Chuvalchangni cho'chimay, Cho'qib yeb qo'ydi. Onasiga dedi so'ng, Uyalib biroz: –Yana qanchadan keyin Bo'laman xo'roz.



MANZURA to'pladi

DO'ST DUSHMANGA AYLANISHI MUMKIN

Darvoqe, aziz bolalar, til bilmaslik do'stni ham dushmanga aylantiradi. Balx shahrida tug'ilgan Jaloliddin Rumi bobongizda shunday masal bor:

To'rt yo'lovchi bor edi. Yo'lda ularga bir saxiy odam tanga hadya etdi.

Forsiy yo'lovchi:

– Yuringlar, bozorga borib, angur sotib olamiz, – dedi.
– Men angur emas, eynab yeyishni xohlayman! – dedi arab.
Turkiy yo'lovchi esa har ikkisiga ham e'tiroz bildirdi:
– Birodarlar, nega shovqin ko'tarasiz, bu pulga uzum sotib olgan ma'qul!

Yunonistonlik yo'lovchi esa:

– Kelinglar, stafil sotib olamiz va mazza qilib yeymiz! – dedi.
Shu tariqa to'rt yo'lovchi bir-birlari bilan tortishib qoldi. Aslida angur, eynab va stafil ham bir narsani – uzumni bildirar va ularning to'rttalasi ham til bilmaganliklari tufayli uzum istayotganlarini bilishmas edi, aks holda, ulardan biri ko'proq tilni bilganda, bu mojaro kelib chiqmasdi.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

RIVOYAT QILADILARKI, USTOZ SHOGIRDGA SHAM, IGNA VA SOCH TOLASI JO'NATDI VA KATDA: «SHULARGA AMAL QILGIN», DEB YOZIB YUBORDI.

Avval mushohada qilib ko'ring, so'ng javobini 8-betda o'qing.

SHE'R YURAKNING ELCHISI

Dilga chiroq yoqib, orom baxsh etadigan she'riyat o'zining sirtligi bilan ming yillardir yuraklarni mastun aylab kelishi bejiz emas. Yurtning har bir go'shasidan yangrayotgan sadolarda Ona zaminning iliq tafti, borliqning betakror jilosi mavj uradi. She'r yurakning elchisi, u qalblarga tinchlik, osoyishtalik zavq-u shavq bag'ishlaydi. She'riyat gulshani ko'nglingizni nurafshon etsin, deymiz.



**PO'NG'IR
AYIQ**

Qishda uxlayman beg'am,
Uyg'onsam bo'lar ko'klam.
O'zimman o'ta jundor,
Qulaygina to'nim bor.
Gar o'kirsam o'rmonda,
Qushlar qochar har yonga.
Yemishim mening asal,
Bo'lmayman sira kasal.
Yotganday go'yo qayiq
Men o'zim qo'ng'ir ayiq.

TOSHBAQA

Yo'lga tushgan Fotima
Toshbaqa topib oldi.
Uni tutib olay deb,
Ortidan chopib qoldi.
Kosasini siladi
Qo'liga tutib asta.
— Qochmoqchimiding, — deya
Koyib qo'ydi ohista.
— Onajon, qanday yaxshi,
Bordir endi toshbaqam.
O'rtoqlarim bo'lsa jam,
O'ynataman uni ham.
Uycha qursam, uzzu-kun
Sira chiqmas dangasam.
Zerikmaydi, yurmaydi,
Bir so'z demas qarasam.

OSMON VATAN


Momolarim duolari senga fido,
Boshing uzra qo'nib tursin mudom humo.
Senga havas bilan boqar butun dunyo,
Bobolarim qalbidagi armon, Vatan!

Tarifingga so'z topolmay qolaman lol,
Ona Vatan, yashnayvergin sen mangu qol.
Yo'llaringni yorug' qildi hur istiqloq,
Boshim uzra charaqlagan osmon, Vatan!
Zulfizar XUDOYQULOVA,
Surxondaryo viloyati, Uzun tumani

TOSHKENT BOLALARI



Yurtda bayram bo'lgan palla
Bizga mazza, bizga yalla.
Borin to'yda ko'z-ko'z qilar
Shoshdagi besh yuz mahalla.
Mingo'rikda mo'ldir o'rik,
Olmazorda g'ij-g'ij olma.
Qo'yliq to'la qovun-tarvuz,
Eskijo'va — koni holva.
Manti, cho'zma lag'mon piri
Labzak, Sag'bon-u O'rdasi.
Sirg'alining norini zo'r,
Chilonzorning moshxo'rdasi.
Beshyog'ochda yog'li somsa,
Oqtapaning oshi shirin.
Yakkasaroy uzumlarin
Novvotdek har boshi shirin.
Ko'kcha, Sebzor giloslari —
Boy zaminning yoqtlari.
Yunusobod anjirga boy,
Qo'shtut faxri — shotutlari.
Yurtda bayram bo'lgan palla
Bizga mazza, bizga yalla.
Borin to'yda ko'z-ko'z qilar
Shoshdagi besh yuz mahalla.



Boshin ko'tarib bot-bot,
Sekin mo'ralab qo'yar.
Qo'limga olay desam,
Go'yo mendan uyalar.

Volida UMAROVA

BOG'-U BO'STONIM

Bog'-u bo'stonim,
Dilda dostonim.
Sen mehribonim,
Jonimsan, Vatan.

Bog'-u bo'stonim,
Gullagin jonim.
Mavj urar qonim,
Bo'stonim, Vatan.

MEN SHOSHQALOQ QIZINGIZ

Menga ilm o'rgatgan
Dilimda mehr uyg'otgan.
Bu dunyoni tanitgan,
Mehribonim, ustozim.

Jonkuyarsiz o'zingiz,
Hikmatli har so'zingiz.
Men shoshqaloq qizingiz
Jonajonim, ustozim.

Shohsanam SOBIROVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi
10-maktabning 5-«V» sinf o'quvchisi

Baxt bekasi

Qadrlyayman bir umrga,
Qilmang hech zor mehrga,
Goho boydir xo'p sehriga,
Suyanch tog'im, onajonim.

Bolam, katta bo'l, dedingiz,
Menga dalda bo'l, dedingiz,
Elga xizmat qil, dedingiz,
Ko'z-qarog'im, onajonim.

Tun uyqusin to'rtga bo'lgan,
Tinch uxlasam, ko'ngli to'lgan,
Chehrasida oftob kulgan,
Shamchirog'im, onajonim.

Siz tug'ilgan kun — qutlug' kun,
Hamma kundan eng ulug' kun,
Shundan mening baxtim butun,
Zavqli chog'im, onajonim...

MAYIZ QANI?!
(Hazil)



Buvim der, ukang qurg'ur,
Juda-juda ham chatoq.
Yuguradi hovlida
Boshimda chaqar yong'oq.

Men hayronman, bilmasam,
Tushunmasam chatoqni.
Zab topqirda ukam ham
Qaydan opti yong'oqni?!

Nodirabegim
NURIMBETOVA,
Qoraqalpog'iston
Respublikasi, Beruniy
shahridagi 59-maktabning
9-sinf o'quvchisi



JO'RA BOBO

Qadrli bolajonlar! Gazetamizni muntazam o'qib borayotgan bo'lsangiz, taniqli adiblar Xudoyberdi To'xtaboyev, Sa'dulla Siyoyev, Tursunboy Adashboyev taqdim qilayotgan asarlarni o'qib, mazza qilayotgan bo'lishingiz aniq. Ular

qatoriga Jo'ra Fozil ham qo'shilganini sezgan bo'lsangiz kerak. Chunki so'nggi yillarda gazetamiz sahifalarida u kishining bir-biridan go'zal hikoyalari chop etilib, sizlarga manzur bo'lgandi. Bugun sizlarni Jo'ra bobongiz bilan yaqindan tanishtirishni lozim topdik. Buniyam o'ziga xos sabablari bor. 1949-yilning 5-oktabrida Buxoro viloyatining Romitan tumanida tug'ilgan Jo'ravoy yoshligidan ilm olishga chanqoqligi bilan tengdoshlari orasida ajralib turardi. Kezi

kelganda, bu intilishlar o'z samarasini berdi. Milliy universitetning jurnalistika fakultetiga o'qishga kirib, uni a'lo baholar bilan yakunladi. «Romitonoma» gazetasi Bosh muharririgacha bo'lgan sermashaqqat yo'lni bosib o'tib, zabardast jurnalistlar qatoridan o'rin oldi. «Muhabbatning bayramlari», «Barqut mavsum», «Buxoro elchisi», «Baxt yulduzi», «Mening qizil gulim», «Bolalikning yolg'iz yodgori», «Ayriqliq ostonasi», «Tiramoh armonlari» kabi hikoya, qissa va romanlardan iborat kitoblari uni yozuvchi sifatida ham elga tanitdi. Rus adiblarining qissa va romanlarini tarjima qilib, bu sohada ham katta iqtidor egasi ekanligini namoyon etdi.


Avvaliga bu gaplarni bolalar uchun nima keragi bor, degan andishaga

bordik. Keyin esa judayam zarur degan xulosaga keldik. Chunki Jo'ra bobongiz bularning barchasiga serg'ayratligi, mehnatsevarligi bilan erishgan.


Tirishqoq odamlar esa albatta o'z maqsadlariga yetadilar. Siz ham bir narsaga qattiq qunt bilan kirishsangiz, albatta katta yutuqlarni qo'lga kiritasiz.

Endi esa asosiy gapni aytak bo'laveradi. Shu kunlarda Jo'ra bobongiz o'zlarining 60 yillik tavallud kunlarini nishonlash harakatida. Gazetamiz tahririyati doimiy muallifimizni tug'ilgan kunlari bilan muborakbod etadi. U kishidan bolajonlar uchun atalgan ko'plab qiziqarli asarlarni kutib qoladi.

Fayzulla DO'ST




AKTYOR BOBO VELOSIPEDDA



Qahramon bobongiz aktyor. Ular bir kuni ishga otlanayotib, hamkasblari bilan hazillashgilar kelibdi va: «Teatrdagi jiyani» Abduraim Abdurahimovga telefon qilibdilar: «Men bugun ishga yap-yangi «Mercedes»imda boraman, debdilar. Hazilga laqqa tushgan «Shum bola» bu yangilikni tezda sheriklariga yetkazibdi. Ular birgalashib teatr hovlisiga yangi mashinani ko'rishga qiziqib chiqib turishsa, ne ko'z bilan ko'rsinlarki, sportchilardek yangi velosiped mingan «tog'ajon» bolalardek iljayib, teatr hovlisiga kirib kelibdilar. Hamma hang-u mang bo'lib, qarsak chalib yuboribdi.

Bolajonlar, poytaxt ko'chalarida erta tongda velosiped minib yurgan odamlarni uchratasizmi? Siz ham erta turib, badantarbiya mashqlari bilan astoydil shug'ullanasizmi? Badantarbiya mashqini va hazil-mutoibani kanda qilmaydigan insonlarning uzoq umr ko'rishlariga, hamisha yosh, tetik, bardam bo'lib yurishlariga ishonasizmi? Biz ana shunday insonlardan biri bugun 60 bahor bilan yuzlashib turganlariga guvoh bo'ldik.



Aslida, insonning uzoq umr ko'rishi uchun hayotda bir qancha sabablar bor. Ammo uning bebaho daqiqalarini badantarbiya mashqlariga sarflash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. O'zbek Milliy akademik drama teatrlarining aktyori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Qahramon bobo Abdurahimovni ko'rganimizda, 60 yoshga kirganlariga aslo ishonmadik. Navqironliklarining siri esa sportda ekan.

Tanishuvdan oldin men sizlarga bir taklifni aytсам, nima deysizlar? Keling, Qahramon aka qanday qilib so'z sehriga-yu, sahna mehriqiga, sport zavqiga qiziqib qolganlarini o'zlar hikoya qilib bersinlar:

– Men Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi G'ovshun qishlog'ida tug'ilganman. 3 yoshimdan boshlab onam Hofiz Sheroziy, Fuzuliy, Navoiyning g'azallaridan o'qib berardilar. Bora-bora qulog'imga o'rnatilib qolgan o'sha she'r-u g'azallarni eshitib uxlaydigan bo'libman. Hozir ham ko'p uxlamayman. Tongni uyimiz yonidagi katta bog'da kutib olaman. Sahar soat 5 da boqqa borsangiz, men bilan uchrashasiz. Velosipedda bog'ni aylanib, tanishamiz.

Maktabda sinfdoshlarim bilan birgalikda «Boy ila xizmatchi» asarini sahnalashtirganimizda, G'ofur obrazini binoyidek ijro etgan ekanman. Adabiyot o'qituvchimiz Zamira opa o'shanda rosa olqishlagandilar. Ana shu e'tibor va e'zoz meni katta sahnaga yetakladi. Toshkent teatr va rassomchilik san'ati institutini tamomlaganman. Teatrqa kelgan paytlarim

menga kichikkina rol berishdi. Endi men aktyorman, deb sevgan qizimni o'sha so'zsiz rolim uchun teatrqa taklif qilgandim. Spektakl tugagach, Feruzaxon: «Sahnaga chiqmadingiz-ku», deb qoldilar. «Tanimadingizmi, chiqdim-u, o'ldim, hech narsa demadim-ku», deganimda birgalashib rosa kulgandik. Shu voqealarga ham salkam 40 yil bo'libdi. Oliygo'hnini tamomlab, teatrdagi buyuk aktyorlarimiz Shukur Burxonov, Olim Xo'jayev, Sora Eshonto'rayeva va Nabi Rahimov bilan yonma-yon turib, sahnaga chiqdim. Shuning uchun ham «Teatr mening ustozim», deyman. Hozirda sahnada katta-katta rollar ijrochisiman.

– Aktyor bo'lishni orzu qilgan bolalarga qanday maslahat berasiz?

Turg'un AZIZOV,
O'zbekiston xalq artisti, professor:

– Qahramon o'ylovchi aktyor. U obraz yaratishda soxtalikka yo'l qo'ymaydi. Men rejissyorlik qilgan Shillerning «Makr va muhabbat» tragediyasidagi qahramonlardan biri Luizaning otasi, muzika o'qituvchisi Miller obrazini talqin etgan. Men Qahramon Abdurahimovning a'lo darajadagi aktyor ekanligiga ishonganman. U dramaturg Hayitmat Rasulning «Muhabbat sultoni» romantik dramasiidagi Qays-Majnun obrazini yaratarkan, Nizomiy, Navoiy, Fuzuliyning dostonlarini qayta-qayta o'qib, ko'chada yurganda ham o'zini Majnun holatida tutib, ishqiy she'rlar o'qish bilan band bo'lganligini kuzatganman. Sahnada Laylini har tomondan axtarib, chekkan nolalari qulog'im ostida hamon jaranglaydi.

– Haqiqiy aktyor bo'laman, degan bola rolning katta-kichikligiga qaramaydi. Kichik rollar aktyorni katta sahnaga boshlaydi. San'at dastlab so'zsiz

rollardan boshlanadi. Tomoshabing har bir so'zning mag'zini yetkazish uchun aktyorga katta mahorat kerak. Men baxtli aktyorlardanman. Sababi, O'zbekiston xalq artisti Turg'un aka Azizovdan va O'zbekiston xalq artisti Rixsi opa Ibrohimovaning aktyorlik maktabidan sahna mahorati, so'z qadrini o'rgandim. Tomoshabin mehrini qozonish uchun iste'dodning o'zi kamlik qilarkan. Aktyordagi kamtarlik mahoratdir.

– Qaysi rollaringizni ardoqlaysiz?

– Aktyor uchun hamma obrazi qadrlidir. Shillerning «Qaroqchilar» fojiasida yaratgan qaroqchi yigit Rasman obrazi o'z muxlislarimni topishimga yo'l ochdi. Xalq artisti

Shukur aka Burxonov bilan ilk sahnaga chiqqanimda, u kishi menga: «Sening oting Qahramon, sahnada ham qahramonligingni ko'rsatishing shart. Hayajonlanma, qo'rqma, sening yoningda Shukur Burxon turibdi», deya dalda bergandilar yelkamga qoqib. Zabar-dast aktyorning otalar-cha mehribonligi hali-hanuz sahna sirlarini mukammal egallashimda asqotmoqda.



Italyan dramaturgi Eduardo De Filippo qalamiga mansub «Tun albatta o'tadi» psixologik dramasiida Qahramon bobongiz Jennaro rovida.

Aktyor bobomizning tabarruk 60 yoshi bilan qutlaymiz. U kishidagi kamtarlik, mehribonlik va samimiyligni qadrlaymiz. Aminimizki, siz albatta yuz bilan yuzlashasiz. Sababi, beg'ubor ko'nglingiz ifori shunga loyiq.

Mehribon ustozlarni, bolalar bilan gavjum, sershovqin sinf xonalarni sog'inmay bo'larkanmi?



Maktab o'quvchilarining orziqib kutgan yozgi ta'tillarining uch oyi ham ortda qoldi. O'yinqaroq, betashvish kunlarimiz tugab, jonajon maktabimiz bag'riga oshiqdik. Axir mehribon ustozlarni, bolalar bilan gavjum, sershovqin sinf xonalarni sog'inmay bo'larkanmi?

Maktabimiz Hamza tumanidagi namunali bilim maskanlaridan biri sanaladi. U 700 ga yaqin o'quvchini bag'riga olgan. Bu yerda barcha fanlardan malakali ustozlar chuqur bilim berishadi.

Maktabimizda a'lochi, bilimdon bolalar ko'p, iqtidorli, san'atsevar bolalarni-ku soni cheksiz. Chunki ularga o'z kasbining ustasi bo'lmish malakali

o'qituvchilarimiz Fotima-Zuhra Obidova, Ozoda Sultonxo'jayeva, Ma'mura Otaboyeva, Mahbuba Rashidova, Nargiza Xolmuhammedova, Xolida Sharipova, Ra'no Halimboyeva, Raisa Dadaxo'jayeva, Mavluda Bashkirseva, Rahmatjon Muhammedov saboq berishadi. O'quvchilarning o'zlari ham shunday ajoyib ustozlar qo'lida tahsil olishayotganidan faxrlanib yurishadi. Maktabni bitirib ketgan shogirdlarning maktabga tez-tez kelib turishlari ustozlar qalbini iftixorga to'ldirmoqda. Yana shunisi quvonarliki, shu maktabni bitirgan o'quvchilar yana maktablariga qaytib, endilikda o'zlari ham ustozlik qilmoqdalar.

O'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, yanada ko'rkamlashib borishida tinib-tinchimas,

xushmuomala va talabchan rahbar Malohat Uzoqovaning hissasi katta. U kishining sa'y-harakatlari, yelib-yugurishlari natijasida maktabimiz iyun oyidayoq to'liq ta'mirdan chiqarildi. Tashkiliy ishlarda ota-onalar qo'mitasi vakillari ustozlar bilan yelkama-yelka turishsa, mahalla faollari tadbir-u tantanalarning doimiy ishtirokchisi, bolajonlarning yaqin maslahatgo'yi bo'lib kelyaptilar.

Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan turli to'garaklar o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi. Ayniqsa, raqs to'garagiga a'zo bo'lishni xohlovchi san'atsevar qizlar talaygina.

Ana, quvnoq qo'shiq jaranglayapti, raqqosa qizlar shodon kayfiyatda maydon bo'ylab xirom aylab, navbatdagi tadbirga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Maktabimizning katta-yu kichigi qo'sha-qo'sha bayram - O'zbekistonimizning Mustaqillik kuni, Toshkentning 2200 yilligi va Bilimlar kunini puxta tayyorgarlik ko'rgan holda qizg'in kutib oldik.

Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
198-maktabning rus tili o'qituvchisi

BILASIZMI?

Janubiy Koreyaning «UMID» kompaniyasi og'irligi bor-yo'g'i 315 gramm bo'lgan «mbook» noutbukini ishlab chiqardi. Uning bahosi 534 AQSH dollari bo'lib, akkumulyatori olti soat davomida ishlashga yetadi.


Parrandalar ichida boltayutar hatto 7500 metr balandlikka, osmon-u falakka chiqib, parvoz qilishi mumkin ekan.

Uzunlikka sakrashda kenguruga hech bir jonivor teng kelolmaydi. U bir sakrashda 9 metrlik marrani bemalol egallaydi. Kengurularning uzunlikka sakrashdagi rekordi 13 metrga teng ekan.

Ilonbaliqlar Yevropa va Shimoliy Amerikadagi o'z joylaridan uvildiriq (tuxumini) tashish uchun Sargass dengiziga -6 ming kilometrlik masofaga yo'l olishadi.

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

O'tgan sondagi «O'zbekiston madhi» boshqotirmasining davomi



Diagonallar bo'yicha:

1. Respublikamizda yetishtiriladigan texnika ekini.
2. Milliy tansiq non.
3. Farg'ona vodiysidagi tarixiy shahar.
4. Toshkent viloyatida joylashgan tog'lik tuman.
5. Vatanimiz janubi hududidagi tuman.
6. O'zbekiston hududidagi tizma tog'.
7. «Amir Temur» ordeni bilan taqdirlangan zaminning sayqali, tarixiy shahar.
8. Milliy musiqa san'at asari.
9. «Shashmaqom» tarkibidagi maqom.
10. Dunyoda ommalashayotgan milliy sportimiz.
11. Ho'l mevdan tayyorlanadigan shirinlik turi.
12. Xorazm viloyati tarkibidagi tuman.
13. «Mirzo Ulug'bek» nomidagi xalqaro kenglik muassasasida joylashgan respublikamizdagi maskan.
14. Vatanimizda yetishtiriladigan serjun echki zoti.

15. Toshkent yaqinidagi oromgoh ko'l.
16. Ko'plab yetishtiriladigan poliz ekini.
17. Mirzacho'l dashtining g'arbidagi tuman.
18. O'zbekistonning ma'lum qismini ish'ol etgan Markaziy Osiyodagi hudud.
19. Professional futbol ligasi jamoasi.
20. Shijoatli ishbilarmon inson.
21. Toshkentda yashab ijod etgan o'zbek ma'rifatparvar shoir.
22. Farg'ona viloyatidagi qadimiy chinorlari bilan ko'rk baxsh etgan manzil.
23. Ona diyorumizdagi ma'muriy hudud.
24. Qashqadaryo viloyatining tog'lik va adirlklarda joylashgan tuman.
25. Sohibqiron Amir Temur davrida qo'llanilgan pul birligi.
26. Taqinchoq, zargarlik buyumi.
27. Vatanimiz himoyachisi, harbiy xizmatchi.
28. Asakada ishlab chiqarilgan avtomobil nomlaridan biri.

Tuzuvchi: F.ORIPOV

5-betdagi savolning javobi:

«Shamdek muloyim bo'l va o'zing yonib, olamni munavvar aylat. Igna kabi o'zing yalang'och qolib, o'zgalarni kiyintir va birovlar bilan payvand et. Soch tolasi nozik va ingichkadur, toyib yiqilishdan hushyor bo'!»



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ARIPOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 700129,
Obuna indeksi: 198,
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 26425
Buyurtma N: J 8073